

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 9 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 9

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 9



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№9 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2022-9>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Artur Gambaryan

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

Yosuke Shamoto

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Egamberdiyev Eminjon

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ: НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	5
2. Умаров Бекзод Азаматович ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА НОМАРКАЗЛАШТИРИШ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	19
3. Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ТИЗИМИДА КОНСТИТУЦИЯВИЙ СУД: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ.....	26
4. Avezov Umidjon Toshpulatovich JAMOAT BIRLASHMASI SIFATIDA KASABA UYUSHMALARINING HUQUQIY MAQOMI VA YURIDIK TABIATI.....	34
5. Toshmuxammadov Asadbek Yusup o‘g‘li O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY TADBIR O‘TKAZISH TARTIBINING HUQUQIY ASOSLARI (QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL).....	43
6. Муракаева Зухра Ильгизаровна СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ НОРМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АВТОРСКОГО ПРАВА.....	50
7. Джалилов Фуркат Закирович ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИНИНГ МУЛКИЙ МАНФААТДОРЛИГИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ.....	58
8. Иброхимов Жамшид Абдуғофур ўғли ЯЛПИ ҚИРҒИН ҚУРОЛЛАРИНИНГ НОҚОНУНИЙ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ЮРИДИК ТАҲЛИЛИ ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	66
9. Jumanazarova Marjona Botir qizi OXIRGI ZARURAT NAZARDA TUTILGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIGA KIRITILISHINING ZARURATI.....	77
10. Худайкулов Ферузбек Хуррамович ЖИНОЯТ ОБЪЕКТИВ ТОМОНИ ФАКУЛЬТАТИВ БЕЛГИЛАРИ: УЛАРНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ВА ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	87
11. Хидоятлов Бахтиёр Батирович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ПРОЦЕССУАЛ ШАКЛ: МОҲИЯТИ, ТАВСИФИ ВА АҲАМИЯТИ.....	100
12. Полвонов Нажмиддин Аслидинович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МУСОДАРА ҚИЛИНИШИ МУМКИН БЎЛГАН МУЛК ОБЪЕКТЛАРИ.....	108



Toshmuxammatov Asadbek Yusup o‘g‘li,
 Jamoat xavfsizligi universiteti
 mustaqil izlanuvchisi
 E-mail: Asadbektoshmuxammatov@.uz

О‘ЗБЕКИСТОНДА ОММАВИЙ ТАДБИР О‘ТКАЗИШ ТАРТИБИНИНГ HUQUQIY ASOSLARI (QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL)

For citation: Toshmukhammadov Asadbek Yusupovich. LEGAL BASIS OF THE PROCEDURE FOR HOLDING MASS EVENTS IN UZBEKISTAN (COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS). Journal of Law Research. 2022, 7 vol., issue 9, pp. 43-49

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7243287>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ommaviy tadbirlarni o‘tkazning mavjud huquqiy asoslari, mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga qo‘yiladigan shartlar hamda bu borada mamlakatimizdagi normalar tavsifi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash bilan bog‘liq masalalar, sohada izlangan olimlarning mulohazalari hamda xorij davlatlaridagi ommaviy tadbirlar o‘tkazishning huquqiy shartlari haqida fikrlar bayon etilgan. Qolaversa, qonunchiligimizni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va asosli takliflar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy tadbir, jamoat tartibi, xalqaro, Ichki ishlar, Milliy gvardiya, shahar, miting, ishtirokchi.

Тошмухамматов Асадбек Юсупович,
 Самостоятельный соискатель
 Университета Общественной Безопасности
 E-mail: Asadbektoshmuxammatov@.uz

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОРЯДКА ПРОВЕДЕНИЯ МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ (СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены существующие правовые основы проведения массовых мероприятий, условия проведения массовых мероприятий в нашей стране и законодательства зарубежных стран, а также описание норм в нашей стране в этом отношении, вопросы, связанные с общественной безопасностью и поддержания общественного порядка, изложены мнения ученых, запрашиваемых в данной области, и Зарубежные Мнения о правовых условиях проведения массовых мероприятий в их странах. Кроме того, были даны практические рекомендации и обоснованные предложения по развитию нашего законодательства.

Ключевые слова: общественное мероприятие, общественный порядок, международный, внутренние дела, Национальная гвардия, город, митинг, участник.

Toshmukhammadov Asadbek Yusupovich,
Independent researcher
of University of Public Security
E-mail: Asadbektoshmukhammadov@uz

LEGAL BASIS OF THE PROCEDURE FOR HOLDING MASS EVENTS IN UZBEKISTAN (COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS)

ANNOTATION

In this article, the existing legal basis for holding public events, the conditions for holding public events in our country and the legislation of foreign countries, as well as the description of norms in our country in this regard, issues related to public safety and maintaining public order, opinions of scientists sought in the field and foreign Opinions about the legal conditions for holding public events in their countries are stated. In addition, practical recommendations and reasonable suggestions for the development of our legislation were given.

Keywords: Public event, public order, international, Internal Affairs, National Guard, city, rally, participant.

Bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar fuqarolarning huquq va erkinliklari qo‘pol ravishda buzilishi holatlarini keltirib chiqarayotganligi bois, bu huquq va erkinliklarni davlat tomonidan kafolatlashni yuqori darajaga olib chiqmoqda. Bunday holatda mitinglar, yig‘ilishlar, va namoyishlar orqali fuqarolar o‘zlarining fikrlarini erkin shakllantiradilar va ifoda etadilar, shuningdek, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining turli masalalari, tashqi siyosat masalalari bo‘yicha talablarini ilgari suradilar.

Fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash masalasida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etganidek, “... boshqaruv tizimi sifatini oshirishda “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan asosiy tamoyilni amalda to‘liq ta‘minlash bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz zarur. Virtual va Xalq qabulxonalariga 1 milliondan ziyod murojaat kelib tushayotgani xalq bilan muloqotni yangi boqichga olib chiqishni talab etadi” [1] deb ta‘kidlaganlar.

Bilamizki, 2022-yilning yanvar oyida qo‘shnimiz Qozog‘iston Respublikasining Olma-ota, Aqtobe, Atirau va Pavlodar shaharlarida boshlangan ommaviy namoyishlar keyinchalik mamlakatda tartibsizliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Oqibatida bunday holat fuqarolarning haq-huquqlarini jiddiy tarzda buzilishi, oddiy aholining xavfsizligiga jiddiy xatarlar tug‘dirdi.

Bunday holatlar rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlari, Osiyo mintaqasining barcha davlatlarida, shu jumladan O‘zbekistonda ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini talab qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish huquqini to‘liq amalga oshirishi, fuqarolarning ommaviy tadbirlarni o‘tkazish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishi va samaradorligini oshirishi, ushbu jarayonning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishi, xorij tajribasini o‘rganib, milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda qonunchiligimizni yanada takomillashtirish zaruratini vujudga keltirdi.

Miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazish huquqining huquqiy tartibga solinishi zaruriyati quyidagi sabablarga asoslanadi.

Birinchidan, miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish huquqi umum tan olingan demokratik talab bo‘lganligi uchun ham alohida himoyaga muhtoj bo‘ladi, chunki uning yordamida turli xil siyosiy kuchlar fikrlari shakllanadi va ifodalanadi. Shu boisdan fuqarolar (ular birlashmalari)ning ommaviy hokimiyat institutlari bilan o‘zaro aloqasi ta‘minlanishi uchun zarur omillar yaratiladi.

Ikkinchidan, tinch ommaviy tadbirlarning mohiyatan jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzishga xavf solish darajasi borligini inkor etmaslik kerak. Jahon tajribasida ma‘lumki avval tinch

ko‘rinishda boshlangan namoyishlar, mohiyatini o‘zgartirib, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, shuningdek, mol-mulkka xavf tug‘dirgan.

Zotan “Ommaviy tadbirlar tashkil etish va o‘tkazish” va “Miting yig‘ilish va namoyishlar” to‘g‘risida me‘yoriy hujjatlar yanada takomillashar ekan, quyidagilar amalga oshgan bo‘lar edi:

birinchidan, fuqarolarning o‘z ijtimoiy faolliklarini miting, yig‘ilish va namoyishlar ko‘rinishida amalga oshirishga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek ularning ushbu sohadagi huquqiy savodxonligini oshirishni ta‘minlaydi;

ikkinchidan, xavfsizlik va jamoat tartibiga taxdid soladigan tartibsiz ommaviy tadbirlar, aktsiyalar, “huquq himoyachilari” va boshqa destruktiv tashqi kuchlar tomonidan ichki vaziyatni zaiflashtirish orqali mamlakat xavfsizligi va xalqaro imidjiga jiddiy zarar yetkazadigan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini kuchaytirishga yordam beradi;

uchinchidan, fuqarolar tomonidan miting, yig‘ilish va namoyishlarni tashkil etilishi va o‘tkazilishi bilan bog‘liq xatti-harakatlarga huquqiy baho berish, jumladan aybdor shaxslarni jinoy va ma‘muriy javobgarlikka jalb qilish masalasiga aniqlik kiritiladi.

to‘rtinchidan, ommaviy tadbir o‘tkazish jarayoni va yig‘ilish, miting, namoyish o‘tkazishdagi o‘xshash va farqli jihatlar asosli tarzda yoritib berilar edi.

Mazkur sohadagi huquqiy me‘yorlar tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqligini Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Qozog‘iston kabi davlatlarda sodir bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar misolida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash masalalari eng dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shahar sharoitida, aholi gavjum joylarda ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan hududlarda jamoat tartibini saqlash, asosiy faoliyat turlaridan biri qolaversa, bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada o‘z tariximizga nazar tashlasak, mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, qisqa muddatda o‘z konstitutsiyasini qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egaligi. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega ekanligi belgilangandi.[2] Ushbu konstitutsiyaviy me‘yor har bir fuqaroning belgilangan tartibda ommaviy tadbirlarni o‘tkazishi mumkinligini anglatadi.

Bu borada xalqaro tajribalar va olimlar fikrini o‘rganadigan bo‘lsak, ommaviy va jamoat tadbirlarini ma‘muriy obyekt sifatida o‘tkazishni huquqiy tartibga solish, ularni amalga oshirishda qonun va tartibni ta‘minlash, ushbu jarayonda ishtirok etgan xavfsizlik kuchlarining vakolatlari zamon talablariga mos rivojlantirib borish kerakligini ta‘kidlab kelishayotganligi bejiz emas.

Y. E. Avrutin, V.M Artemov, A. V. Korotkova, P. S. Nazarov, I.Ryabova, O. P. Saulik, I. I. Sydoruk, N. M. Hesina, A. I. Shinkarev kabilar huquq-tartibot, jamoat tartibini ta‘minlash masalalari va jamoat xavfsizligi doir ko‘plab fikrlari aks ettirilgan ilmiy ishlarida: ommaviy va jamoat sohasidagi jamoatchilik bilan aloqalar tadbirlar ma‘muriy-rejimni tartibga solishga moyil deb hisoblashlarini, ma‘muriy-huquqiy rejimlarning nazariyasi va turli jihatlarini, shu jumladan ichki ishlar organlarining (politsiya) mexanizmidagi roli tahlil qilinib, turli ommaviy tadbirlar va ularni amalga oshirishda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar obyekt sifatida o‘rganganligini ta‘kidlashgan. Huquqshunos olim A.I.Ivanov fikricha fuqarolarning jamoat xavfsizligi va tartibiga konstitutsiyaviy huquqini cheklash chegaralari va qiyosiy huquqshunoslik doirasida fuqarolarning ommaviy tadbirlarga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqi o‘rganish e‘tiborga molik hisoblaydi.[3]

Vaholanki, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishni tartibga solish mexanizmida ustuvor o‘rin xalqaro-huquqiy hujjatlarga tegishlidir. Jumladan, ularga, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”[4](1948 y.), “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoyalash to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi” [5](1950 y.), “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi siyosiy Pakt”[6](1966 y.), Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlari Xartiyasi[7](2000 y.) kabilarni kiritishimiz mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish bevosita O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-son va

2019-yil 4-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalariga kiritiladigan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar to‘g‘risida”gi 559-son Qarorlari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bu farmonning asosiy g‘oyalari jinoyatchilikka qarshi kurashning sifati va samaradorligini oshirish, jamoat tartibini, mulkni himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta‘minlashdir.

Mazkur farmon ijrosi doirasida qabul qilingan ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishda asosiy o‘rin tutadigan quyidagi muhim hujjatlar - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-3528-son (2018 yil 14 fevral), «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3786-son (2018 yil 19 iyun) va «Jamoat xavfsizligini ta‘minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4075-son (2018 yil 24 dekabr) qarorlari mamlakatimiz poytaxti - Toshkent shahrida ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmalari faoliyatini samarali tashkil etish, ular faoliyatiga ilg‘or ish usullari va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu qarorlarda, O‘zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish tartibini belgilashini hamda ular ishtirokchilari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ma‘muriyatlarining, ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari va boshqa davlat organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlari, majburiyatlari va huquqlari belgilab berilgan.[8]

Bundan tashqari, ommaviy tadbirlar o‘tkazish va jamoat tartibini saqlash bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Saylov kodeksi, “Ichki ishlar organli to‘g‘risida”, “Miliy gvardiya to‘g‘risida”, “Favqulodda holat to‘g‘risida”, “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”, “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”, “Vijdon erkinligi va jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlarida ham nazarda tutiladi.

Xalqaro va umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun ruxsatnomalar Vazirlar Mahkamasi bilan kelishuv bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida “Navro‘z”, “Mustaqillik” va “Yangi yil” umumxalq bayramlarini o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq tashkil qilinadigan ommaviy tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining qarorlari asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, amalda ommaviy tadbirlar shartli ravishda ijtimoiy-siyosiy, madaniy, sport ko‘ngilochar va diniy marosimlar. Ular o‘zlarining tashkilotlari maqsadlari, ishtirokchilar va tomoshabinlarning tabiati va soni, o‘tkaziladigan joylari himoyalangan jamoat munosabatlariga ta‘siri darajasi va boshqa omillarga ko‘ra farqlanadi[9].

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanilsa, bu turlicha tartibda amalga oshiriladi. Masalan, AQShda fuqarolar tomonidan ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soluvchi qoidalar maxsus qonun hujjatlari bilan belgilanmagan, balki sud amaliyoti, sud qarorlaridan kelib chiqadi yoki politsiya xizmatlari va advokatlar o‘rtasidagi hamkorlik jarayonida ishlab chiqiladi. Bu masalalar shtatlar va mahalliy hokimiyatlar vakolatiga kiradi. Qo‘shma Shtatlardagi amaldagi amaliyotga ko‘ra, ayrim ko‘chalar, tumanlar, bloklar transport va piyodalar uchun yopilishini talab qiladigan ommaviy tadbirlar mahalliy hokimiyat organlarining, odatda politsiya bo‘limining maxsus ruxsatini talab qiladi. Masalan, AQSH poytaxti Vashingtonda ko‘chalarda ommaviy tadbirlarni

o'tkazish qoidalarini mahalliy munisipalitet tomonidan belgilanadi va to'rt kundan kechiktirmay (dam olish kunlari bundan mustasno) hokimiyatga maxsus ariza shaklini majburiy topshirishni nazarda tutadi. Agar u tashkilot tomonidan boshlangan bo'lsa, u kamida ikki oy davomida mahalliy munisipalitetda ro'yxatdan o'tgan va shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan bo'lsagina ruxsat olish mumkin. Ommaviy tadbir tashkilotchisi bo'lgan uchta katta yoshli fuqaro nomidan ariza shaklida: uning maqsadlari, ishtirokchilar harakatlarining taxminiy tabiati, texnik vositalardan (nutqni kuchaytirish, transport vositalari va boshqalar) foydalanish imkoniyati.

Yaponiyada esa ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi ommaviy tadbirlar hududiy hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Nizomga muvofiq o'tkaziladi. Masalan, Tokio prefekturasida ko'chalarda mitinglar, yurishlar va namoyishlar o'tkazish to'g'risidagi nizom mavjud bo'lib, unda barcha namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlar faqat prefektura ruxsati bilan o'tkazilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bunday ruxsatni olish uchun tashkilotchilar prefekturaga tadbir boshlanishidan 72 soat oldin yozma ariza yuborishlari kerak, unda quyidagilar ko'rsatilgan: tadbirning maqsadi, unda ishtirok etuvchi tashkilotlarning nomlari; tashkilotchilarning nomlari va manzillari; voqea sanasi, vaqti; ishtirokchilarning harakatlanish marshrutlari va h.k. Ariza militsiya bo'limi orqali topshiriladi, uning hududida ommaviy tadbir o'tkazilishi rejalashtiriladi. Ta'kidlash joizki, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga soluvchi xorijiy qonunchilik normalari fuqarolarning ham, ularda ishtirok etuvchi barcha tomonlarning ham huquq va majburiyatlarini juda aniq tartibga soladi.

Rossiya federatsiyasining 2004-yil 19-iyundagi "Yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar, yurishlar va piketlar to'g'risida" qonuniga muvofiq Ommaviy tadbirning maqsadi o'z fikrlarini erkin ifoda etish va shakllantirish, shuningdek, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning turli masalalari va tashqi siyosatga oid talablar qo'yishni nazarda tutiladi. Ommaviy mitingning tashkilotchilari 16 yoshga yetgan Rossiya federatsiyasi fuqarolari, siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari, ularning mintaqaviy birlashmalari va tarkibiy bo'linmalari bo'lishi mumkin.

Fuqarolar, jamoat birlashmalari, davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslarining ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishdagi faoliyatining huquqiy asoslari Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining qoidalarini, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, "Favqulodda holat to'g'risida" Federal konstitutsiyaviy qonuni bilan belgilanadi. Qolaversa "Siyosiy partiyalar to'g'risida", "Jamoat birlashmalari to'g'risida", "Xavfsizlik to'g'risida", "Politsiya to'g'risida", "Saylov huquqlarining asosiy kafolatlari", "Federal qonuni va saylov va referendumlar to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Diniy marosimlar va marosimlarni hamda diniy xarakterdagi boshqa jamoat tadbirlarini o'tkazish "Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to'g'risida"gi Federal qonunning ba'zi qoidalarini bilan tartibga solinadi[10].

Aytilgan joizki, tahlillar bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligida fuqarolar tomonidan miting, yig'ilish, namoyish, ko'cha yurishlari va piket o'tkazishni tashkil etish va o'tkazish tartibi belgilab qo'yilganligidan dalolat bermoqda.

Xususan, xorijiy mamlakatlarda "miting", "yig'ilish", "namoyish" tushunchalari, ishtirokchilarning majburiyatlari, ushbu harakatlarni o'tkazish vaqti va joylari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan (Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Qozog'iston, Turkmaniston).

Bundan tashqari, miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish to'g'risida ariza berish tartibi, hokimiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish sohasidagi huquq va majburiyatlari, jumladan, ushbu faolliklarni to'xtatib turish yoki tugatish asoslari va tashkil etish va o'tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarlik masalasi qat'iy belgilab qo'yilgan (Germaniya, Fransiya, Estoniya, Ozarbayjon).

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish qiyin va mas'uliyatli vazifadir. Bu borada qo'shni davlatlar tajribasi va MDH davlatlarining qonunchiligi o'rganish, hayotiy faoliyatga keng tatbiq etish bugungi kunning dolzarb zarurati bo'lib qolmoqda. Tinch va osoyishta mamlakatimizning ravnaqiga ko'z olaytirguchilar, har xil diniy, aqidaparast va separatistik oqimlar uchqunlari ko'zga tashlanib turgan vaziyatda milliy qonunchiligimizni mustahkamlab, huquqiy poydevor yaratish, mamlakatimiz

ravnaqi uchun tashlangan katta qadam deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish uchun faqat tashkiliy qobiliyat yetarli emas. Buning uchun ko'p qirrali bilim, yetarlicha tajriba, yaxshi rivojlangan sezgi va farosat, shuningdek rejaning ulug'vorligiga qarab katta mablag' talab etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib O'zbekiston Respublikasida ommaviy tadbirlar o'tkazish bilan bog'liq amalga oshirilgan ishlarni takomillashtirish maqsadida, Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan asosiy joylarda biri bo'lgan futbol stadionlari xavfsizligini ta'minlash va o'yinlarni tinch do'stona muxlislik qilishini yo'lga qo'yish maqsadida "Stadion xavfsizligi to'g'rida" va "Futbol muxlislari tog'risida" qarorlar ishlab chiqish, ommaviy tadbirlarni o'tkazish faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ommaviy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha alohida Nizom ishlab chiqish (Yaponiya tajribasi misolida), viloyatlarda aholi soni va xususiyatiga qarab ommaviy tadbir o'tkazish hududlarni toifalarga ajratish, Ommaviy tadbirlar o'tkazish va tashkillashtirish bo'yicha HMQO vakillarini birlashtirgan holda alohida veb-saytiga fuqarolarni qiziqtirgan eng ko'p sonli savollar (masalalar) yuzasidan qonun hujjatlari asosida tayyorlangan javoblarni joylashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Odamlar to'planishi xuddi suv oqimiga o'xshaydi - odatdagi sharoitda u daryo bo'yida oqadi, lekin elementlar parchalanib ketganda, u «qirg'oqlardan» chiqib, o'z yo'lidagi hamma narsani supurib tashlaydi. Odamlar hissiy, vahima qo'zg'ashlari mumkin, biron bir narsadan qo'rqish odamni xotirjam holatda qoldirmaydi. Xullas, hamma joyda bitta shart bilan amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin, agar u qonun bilan taqiqlanmasa va xavfsizlikka xavf tug'dirmasa.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.//Xalq so'zi, online. (Mirziyoyev Sh.M. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev to the Oliy Majlis. January 24, 2020.//People's word, online) <http://xs.uz.uzkr/>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi VIII bob 33-modda (Constitution of the Republic of Uzbekistan, Chapter VIII, Article 33)
3. Бачурин Александр Геннадьевич "Полиция в административно-правовом механизме обеспечения правопорядка в период подготовки и проведения массовых и публичных мероприятий" Санкт-петербург – 2019. (Bachurin Alexander Gennadievich "The police in the administrative and legal mechanism for ensuring law and order during the preparation and holding of mass and public events" St. Petersburg - 2019)
4. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948 y.) ("Universal Declaration of Human Rights" (1948))
5. "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoyalash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" (1950 y.) ("European Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms" (1950))
6. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi siyosiy Pakt" (1966 y.) ("Political Covenant on Civil and Political Rights" (1966))
7. Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlari Xartiyasi (2000 y.) (Charter of Fundamental Rights of the European Union (2000))
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.07.2019 y., 09/19/559/3384-son (National database of legal documents, 07/05/2019, No. 09/19/559/3384)
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyul kunidagi 205-sonli "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated July 29, 2014 No. 205 "On measures to further improve the procedure for organizing and holding public events")
10. Академия управления МВД СССР. Экспресс-информация. Вып.5. М., 1989. С. 21. 6. Федеральный закон "О собраниях, митингах, демонстрациях, шествиях и

пикетированиях" от 19.06.2004 N 54-ФЗ (последняя редакция) (Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of the USSR. Express information. Issue 5. M., 1989. P. 21.
6. Federal Law "On meetings, rallies, demonstrations, processions and pickets" dated 19.06.2004 N 54-FZ (last edition))

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 9 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 9

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 9

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000